



2017 yil yanvar – iyul oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2017 yilning yanvar– iyul oylarida Samarqand viloyatida 1266,1 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 84,6 foizni tashkil etdi. Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 77,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati 99,3 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 47,0 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun moʻljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yoʻllarini taʼmirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obʼyektlari (maktablar, maktabgacha taʼlim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida oʻz faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

MULKCHILIK SHAKILLARI BOʻYICHA QURILISH ISHLARI



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1224,9 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 96,7 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning oʻsish surʻatiga nisbatan 0,4 bandga koʻpayib, Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 77,2 mlrd. soʻmlik qurilish

montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 6.1 foizini tashkil qildi.



2017 yilning yanvar – iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1224,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,3 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa 41,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 79,1 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'ektlarining ulushi 157,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,8 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 13,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 56,4 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 60,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,8 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 2,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil qildi.